

**TALABALARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI HAQIDAGI TASAVVURLARINI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK YO'NALISHLARI**

Xazratqulova Dilfuza Xamroqulovna

“Social-Psychological Directions of Forming Students’ Perceptions of Information Security The Importance of Psychological Support in Resolving Family Problems

P.f.f.d.(PhD) Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

xazratqulovadilfuza46@gmail.com +998900200279

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talaba-yoshlarning axborot xavfsizligi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish jarayonining ijtimoiy-psixologik yo'nalishlari tahlil etiladi. Tadqiqotda zamonaviy axborot makonining shaxs psixikasiga ko'rsatadigan ta'siri, axborot oqimlarining intensivligi hamda raqamli muhitda yuzaga keladigan psixologik tahdidlarning talaba-yoshlar ongida xavfsizlikka oid bilim, munosabat va xulq-atvorni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, axborot xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy muhit, ta'lim jarayoni, ommaviy kommunikatsiya vositalarining psixologik ta'sir mexanizmlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *axborot xavfsizligi, axborot-psixologik xavfsizlik, talaba-yoshlar, axborot makoni, ijtimoiy-psixologik omillar, raqamli muhit, salbiy axborot ta'siri, psixologik immunitet, tanqidiy fikrlash, axborotni idrok etish, axborotni tahlil qilish, ijtimoiy moslashuv, shaxs psixologik barqarorligi, axborot madaniyati.*

Annotation: *This article analyzes the socio-psychological directions of shaping students' perceptions of information security. The study highlights the impact of the modern information environment on individual psychology, the intensity of information flows, and the role of psychological threats in the digital space in forming students' knowledge, attitudes, and behaviors related to security. Furthermore, the psychological mechanisms through which the social environment, educational processes, and mass communication tools ensure information security are examined.*

Keywords: *information security, information-psychological security, students, information environment, socio-psychological factors, digital environment, negative information impact, psychological immunity, critical thinking, information perception, information analysis, social adaptation, personal psychological stability, information culture.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda dunyo miqyosda axborot oqimlarining yuqori sur'atlarda kengayib borishi yoshlarning ijtimoiy hayotiga chuqur kirib kelib, ularning keng qatlamini eggalab olmoqda. Raqamli kommunikatsiya vositalari va ommaviy axborot manbalarining jadal tezlikda rivojlanishi sharoitida talaba-yoshlar tomonidan axborotni tezkor qabul qilish, uni tahlil etish, qayta saralash hamda zarur ma'lumotlarni tanlab olish jarayonlari murakkablashib bormoqda. Mazkur

jarayonlarda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchalarini anglay olish, uning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini idrok qilish hamda axborotning shaxs psixikasiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlarini ilmiy asosda o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, axborot olamida yoshlar ongiga salbiy axborotlar ta'sirining kuchayib borishi ularning psixologik barqarorligi, tanqidiy fikrlash darajasi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

We Are Social tahliliy agentligi va Global Digital'ning 2018-yilda e'lon qilingan ma'lumotlariga ko'ra, yoshlar ongida salbiy axborot ta'siriga nisbatan psixologik "immunitet"ni muntazam ravishda rivojlantirishning muhim sharti sanaladi.¹⁴ Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, talabalarda axborot, ularning tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirish axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash borasida psixologik xavfsizlik tushunchalarini shakllantirish hamda mazkur jarayonga bo'lgan munosabatni ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun mazkur holatlar talabalarda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchalarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlash, uning mexanizmlari va samaradorlik omillarini ilmiy tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Jahonning ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchalarini shakllantirish, uning ijtimoiy psixologik jihatlarini o'rganish va rivojlantirish, shu tushunchalar asosida uning ijobiy va salbiy ta'sirlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Har bir insonning ruxiy kechinmalari xayotidagi mavjud ijtimoiy borliq bilan chambarchas bog'liq ekanligi olimlar tomonidan ilmiy jixatdan asoslanib o'z isbotini topgan. Hozirgi vaqtda yashin tezligida tarqalayotgan axborotlarni qabul qilish jarayonida talaba-yoshlarda psixologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, axborotlarni saralash asl mazmunini anglash uchun, axborotning psixologik ta'sirini aniqlash tushunchalarini shakllantirish, uning ijtimoiy psixologik jihatlarini o'rganish dolzarb bo'lib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda talaba-yoshlarni zararli axborot tahdidlari ta'siridan himoya qilishning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. «Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash»¹⁵ muhim vazifa sifatida belgilab berildi.

Jamiyatda har bir talabaning o'z o'rnini topishi, keng dunyoqarashga ega bo'lishi, o'z bilimni oshirib borishi davlat siyosatining eng muhim uctuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Yoshlarni axborotlardan to'g'ri foydalanishi bo'yicha mamlakatimiz tomonidan axborot xavfsizligini ta'minlash, har xil tahdidlardan asrash, yoshlarning dunyoqarashlariga salbiy ta'sirida tashqi harakatlarni bartaraf etish borasida barqaror siyosatlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi

1. ¹⁴ <https://www.rti-mirea.ru/jour/article/viewFile/160/160>

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi 490-son "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori / <https://lex.uz/docs/5550539>

to'g'risida", 2018-yil 14-avgustdagi PF-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-son "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, hamda PQ-61-son "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonlar, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishmoqda. Bu esa, shaxs va jamiyatga salbiy ma'lumotlar va psixologik ta'sirlar muammosining jiddiyligini talabalarning dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan axborotlarning tuzilishi, ko'rinishlari va manbalarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni takomillashtirish uchun zarur imkoniyatlar yaratilganligi hamda amaliy jihatlarini ilmiy tadqiq etilganligi asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchalari nomoyon bo'lishining o'ziga xos ko'rinishlarini tizimli va faoliyat-kompetentlik yondashuvlari tamoyillariga rioya qilish asosida talabalarning faolligini oshirish uchun ta'lim traektoriyalarini yaratish, ta'lim jarayonining rivojlanish muhitini boyitish tamoyilini o'z ichiga olgan holda talabalarda refleksiv qiymat qo'llab-quvvatlash uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish va ichki dunyoqarash tizimini shakllantirish mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Shu asosda, ta'lim jarayonini loyihalashda talabalarning individual psixologik xususiyatlari, axborotni idrok etish va qayta ishlash uslublari, shuningdek, axborot muhitida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni anglash darajasi inobatga olinishi lozim. Mazkur jarayonda talaba shaxsining subyektiv faolligini ta'minlash, uning axborot-psixologik xavfsizlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda refleksiv faoliyatni faollashtirish, o'z-o'zini tahlil qilish va baholash mexanizmlarini shakllantirish orqali talabalarda axborot ta'siriga nisbatan ongli munosabat va psixologik barqarorlikni qaror toptirish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, tizimli va faoliyat-kompetentlik yondashuvlari doirasida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interfaol ta'lim metodlaridan samarali foydalanish hamda muammoli vaziyatlar asosida o'quv faoliyatini tashkil etish talabalar tomonidan axborot tahdidlarini anglash va ularni bartaraf etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijada, talabalarning ichki dunyoqarash tizimi, ijtimoiy mas'uliyati va axborot madaniyati izchil shakllanib, ularning zamonaviy axborot makonida xavfsiz va samarali faoliyat yuritish imkoniyatlari kengayadi.

Shuningdek, talabalarda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchalarining shakllanishi nafaqat ularning shaxsiy psixologik barqarorligini ta'minlaydi, balki zamonaviy axborot makonida ongli va mas'uliyatli faoliyat yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tizimli va faoliyat-kompetentlik yondashuvlari asosida ta'lim jarayonini loyihalash talabalarga refleksiv faoliyatni faollashtirish, axborot oqimlarini tahlil qilish va saralash, shuningdek, salbiy axborot ta'siriga nisbatan psixologik "immunitet"ni mustahkamlash imkonini beradi.

Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchalarini shakllantirishda milliy urf-odatlar va an'analar talaba-yoshlar ongida axborot bilan ishlash madaniyati, ijtimoiy munosabatlar va psixologik barqarorlikni mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar, madaniy me'yorlar va ijtimoiy odatlar axborot ta'sirini talaba shaxsiga moslashtirishga yordam berib, uning psixologik immunitetini oshiradi va shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasini mustahkamlaydi. Axborot-psixologik xavfsizlikning psixologik mazmuni talabaning axborot muhitida yuzaga keladigan turli tahdid va salbiy ta'sirlarga nisbatan ongli, moslashuvchan va barqaror munosabatni anglatadi. Bu tushuncha shaxsning quyidagi xususiyatlarini o'z ichiga oladi:

Axborotni idrok etish va tahlil qilish qobiliyati – talabaning kelib tushgan axborotni tezkor qabul qilish, saralash va kerakli qismini ajratib olish malakasi;

Psixologik barqarorlik – stressli yoki salbiy axborot ta'siriga nisbatan hissiy va kognitiv barqarorlikni saqlay olish;

Refleksiv faoliyat – o'z ongini, dunyoqarashini va axborot ta'siriga munosabatini tahlil qilish qobiliyati;

Tanqidiy fikrlash – axborotning ishonchliligi va foydaliligi bo'yicha mustaqil baho berish, xulosalar chiqarish;

Axborot madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat – axborotdan foydalanishda axloqiy va madaniy me'yorlarga rioya qilish, shaxs va jamiyat manfaatlarini hisobga olish.

Shunday qilib, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi shaxsning axborot makonida ongli, mas'uliyatli va barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydigan psixologik tizim sifatida ko'riladi. Milliy urf-odatlar va an'analar esa ushbu tizimni shakllantirish va mustahkamlashda strategik resurs vazifasini bajaradi, talaba-yoshlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini rag'batlantiradi.

Axborot –psixologik xavfsizligi turli matnlarda turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin, ushbu ma'lumotlarning nusxasi jamiyat va davlat manfaatlarining muvozanatli majmui sifatida belgilangan milliy manfaatlarni himoya qilish holatini belgilaydi. Uning asosiy maqsadi – jamiyat va davlat manfaatlarini muvozanatli tarzda ta'minlashdir.

Ushbu nuqtai nazardan, axborot xavfsizligi milliy manfaatlarni himoya qilish mexanizmi sifatida, shuningdek, axborot oqimlari va ularning psixologik ta'sirini nazorat qilish orqali shaxs va jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi kompleks tizim sifatida qaraladi.

Natijada, axborot xavfsizligini ta'minlash nafaqat davlat darajasida, balki shaxsning ijtimoiy va psixologik barqarorligini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi

Usullar(Methods): Tadqiqotimiz davomida, Talabalarda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchalarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik jihatlarini aniqlash hamda axborotlarning yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta'sirlarini bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida, "Talabalarning turli axborot manbaalaridan foydalanish o'rnini o'rganish" nomli anketa-so'rovnomasi o'tkazildi va olingan natijalarga ko'ra, quyidgi vazifalar ishlab chiqildi:

-Talabalarda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchalari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi;

Natijalar(Results): Talaba-yoshlarda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchalarini shakllantirishning mazmunli va ijtimoiy-psixologik jihatlarini taxlil qilinib tegishli nazariy ishlanmalarning etarli emasligi asoslandi;

Talabalarning axborot va psixologik xavfsizligi madaniyatini shakllantirish jarayonini ilmiy-uslubiy ta'minlashni rivojlantirish zaruratini aniqlanib ijtimoiy-psixologik trening dastur hamda psixologik tavsiyalar ishlab chiqildi. Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish quyidagi asosiy tamoyillar orqali samarali amalga oshirilishi mumkin:

Tizimli yondashuv – axborot-psixologik xavfsizlikni ta'limning barcha darajalarida va faoliyat yo'nalishlarida izchil rivojlantirish;

Faoliyat-kompetentlik yondashuvi – talabaning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish malakalarini integratsiyalashgan tarzda shakllantirish;

Refleksiv faoliyatni rag'batlantirish – o'z-o'zini baholash va tahlil qilish mexanizmlari orqali shaxsiy psixologik barqarorlikni mustahkamlash;

Interfaol va muammoli o'quv metodlarini joriy etish – amaliy vaziyatlar asosida axborot-psixologik xavfsizlikni oshirish va ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni rivojlantirish.

Mazkur tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish orqali talabalarda axborot madaniyati, ijtimoiy mas'uliyat, psixologik barqarorlik va tanqidiy fikrlash darajasi sezilarli darajada oshadi, bu esa ularni zamonaviy raqamli va axborot makonida samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Psixologik tajribada shaxs psikasining o'ziga xos jabhasi, inson faoliyatining ayrim jihatlarini sifatida harakatdagi, tevarak-atrofdagi voqelikni odam bosh miyasida turli-tuman shaklda ichdan aks ettiriladi. Shuning uchun hissiyot borliqda sodir bo'layotgan narsa va hodisalar yuzasidan shaxs uchun ahamiyatli, qadr-qiyimatli alomatlarini tuyg'usidan darak beruvchi signallar sistemasi tarzida talqin qilinadi. Yakkol voqelikda sezgi a'zolariga ta'sir etuvchi har xil qo'zgovchilaridan ba'zi birlari alohida talqin qilinadi. uzaro mos tushganlari esa birlashadi, favqulodda namoyon bo'la boshlagan hiss-tuyg'ular bilan ular aralashib ketadi. Buning natijasida muayyan

ko'zgovchilar tirik mavjudodpar uchun xotirjamlik yoki bezovtalik signaliga aylanadi, hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasini shakllantiruvchi shartli reflekslar tizimini barqarorlashtiruvchi omil tarzida aks etadi.

Bizning fikrimizcha, talabalarning axborot xavfsizligi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish ularning axborot ta'siriga ongli munosabatini rivojlantirish, psixologik barqarorligini mustahkamlash va ijtimoiy muhit bilan samarali o'zaro aloqada bo'lish qobiliyatini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shuningdek, mazkur jarayon milliy qadriyatlar, pedagogik metodlar va interfaol ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilsa, talabalarda axborot-psixologik xavfsizlikning izchil va samarali shakllanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.rtf-mirea.ru/jour/article/viewFile/160/160>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi 490-son "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori / <https://lex.uz/docs/5550539>.
3. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari:Psix.fan.dok...diss...-T.: O'zMU,2005.-390 b.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma.- T.: "Universitet", 1999. – 96 b.
5. G'oziyev E., To'laganova G. Pedagogik psixologiya asoslari: O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Universitet", 1997. – 80 b.
6. G'oziyev E. Umumiy psixologiya: T: O'zMU :-237 b.
7. Rajabov O.R. Talaba-yoshlarda axborot psixologik xavfsizlik tushunchalarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik jihatlari // Psixol.f.n. ilmiy daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref.-Guliston, 2025 – 26 b.